

## Yoshlar ijod saroyiga tashrif

Gidrotexnika qurilishi fakulteti "Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika ob'ektlari" ta'lim yo'nalishi 306, 307-guruh talabalari guruh murabbiylari "Suv energiyasi va nasos stansiyalaridan foydalanish" kafedra dotsenti S.K.Xidirov va PhD F.K.Artikbekovalar rahbarligida "Yoshlar ijod saroyi"ga tashrif buyurishdi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Yoshlar ishlari agentligi, Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining aprel oyining birinchi haftasini O'zbekistonda «Kitobxonlik haftaligi» etib belgilash to'g'risidagi taklifi ma'qullangan.



Shu munosabat bilan 5-9 aprel kunlari Respublikamizning barcha hududida «Kitobxonlik haftaligi» tadbirlari o'tkaziladi. Bugun O'zbekistonda ilk bor o'tkazilayotgan «Kitobxonlik haftaligi» Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, Respublika Yoshlar ijodi saroyi, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlar axborot kutubxona markazlarida o'tkazilmoqda. Talabalar "Respublika Yoshlar ijodi saroyi"da tashkil qilingan kitoblar yarmarkasidan kitoblar sotib olishdi. Bunday tadbirlar albatta, yoshlarni ma'naviy yetuklikka erishishida muhim rol o'ynaydi.

**"SE va NSF" kafedra ass. B.N.Shodiyev axboroti**  
**TIQXMMI matbuoti xizmati**